

Qashqadaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-oktabr dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1-noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6 513 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 20 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 6 493 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 22 826,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 107,9 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 138,0 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 19 085,8 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 602,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1-noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 266 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 250 tani tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2025- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 7 328,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 7,6 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 6506,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,8 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd. so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hudud Kasbi (2,3 m.) tumanida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1-noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 517 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 511 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 18 385,9 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 115,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi, 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)



Chiqarish uchun javobgar:

Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi

Manzil: 180100, Qashqaryo viloyati, Mustaqillik
ko'chasi, 2 B-uy **Pochta:** qashstat@umail.uz
Tel.: 75-221-44-28